

# Davlat madhiyasi qanday qabul qilingan edi?



## 1990-yil 24-mart

O'zbekiston Oliy Sovetining birinchi sessiyasida Madaniyat, fan, xalq ta'limi va madaniy merosni asrash qo'mitasiga yangi madhiyaning matni va musiqasini ishlab chiqish vazifasi yuklatildi.



## 1990-yil dekabr

Davlat madhiyasi matni va musiqasi bo'yicha tanlov e'lon qilindi. Nizomga ko'ra, tanlovda ishtirok etuvchi ijodkorlar yashirin imzo – taxallus bilan qatnashdilar.



## 1991-yil 5-aprel

Madaniyat, fan, xalq ta'limi va madaniy merosni asrash qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi uchun taqdim etilgan she'rlarni saralab chiqdi. 12 ta she'r keyingi bosqich uchun tanlab olindi.



## 1991-yil iyun

Davlat madhiyasi musiqasi uchun taqdim etilgan asarlar tanlovi. Unda 30 ga yaqin musiqiy asar ishtirok etdi.



## 1992-yil oktyabr

She'r tanlash bo'yicha tanlovning ikkinchi bosqichi.  
O'zbekiston Oliy Kengashi sessiyasiga Abdulla Oripov va Mirpo'lat Mirzo she'rlari, Matal Burxonov, Rustam Abdullayev, Baxtiyor Aliyev musiqalari taqdim etildi.



## 1992-yil 8-dekabr

O'zbekiston Oliy Kengashi o'n ikkinchi chaqiriq o'n birinchi sessiyasi o'z ishini boshladi.  
Sessiyaning dastlabki kunida O'zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi.

## 1992-yil 10-dekabr

Mustaqil O'zbekistonning Davlat madhiyasi variantlari sessiyada taqdim etildi.  
A.Oripov va M.Burxonov varianti deputatlar tomonidan ma'qullandi.  
"O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi.